

Muzeylararo hamkorlik kengaymoqda

O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi va Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahri "Sulaymon-Too" milliy tarixiy – arxelogik muzey majmuasi o'rtaida Memorandum imzolandi. Memorandum madaniyat sohasidagi hamkorlikni, xalqlar o'rtaсидаги do'stona munosabatlarni, madaniyat va muzey ishi sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan.



Kelgusida ushbu Memorandumga ko'ra "Sulaymon-Too" milliy tarixiy – arxelogik muzey majmuasi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'rtaida muzeishunoslik sohasida ekspertlar hamda ma'lumot materiallari almashinuvi, shuningdek, muzey ishi yo'nalishidagi ilmiy konferensiya va seminarlar to'g'risida axborot almashish orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

